

**IQTISODIYOTNI TEXNOLOGIK VA INNOVATSION O‘SISH MODELIGA
O‘TKAZISHDA RAQAMLI REKLAMANING HUQUQIY AHAMIYATI**

Tursunov Abduxalil Abdusalimovich

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti

Tadqiqot markazi kichik ilmiy xodimi

ORCID ID: 0000-0002-4332-1424

Elektron pochta manzili: intlaw100@gmail.com

Telefon: +998951870511

Yuridik fan yo‘nalishi: 12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.
Xalqaro xususiy huquq.

UDK:

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Toshkent shahridagi savdo shahobchalari peshlavhalarining buzilishi bilan bog‘liq yuzaga kelgan huquqiy nizolar tahlil qilinadi. Muallif O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 428-son va 104-son qarorlari hamda Toshkent shahar Kengashining “dizayn-kodi” to‘g‘risidagi qarori o‘rtasidagi tizimli ziddiyatlarni ochib beradi. Xususan, “reklamadan xoli hududlar” tushunchasining qonunchilikda aniq belgilanmaganligi, peshlavhalarning reklama obyekt sifatida baholanishi, tashqi reklamani o‘rnatganlik uchun yig‘imlar va ekspluatatsiya yig‘imlarining bir vaqtda undirilishi hamda reklama joyi pasportining yuridik kuchiga oid qarama-qarshiliklar atroflicha ko‘rib chiqilgan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining ustuvorligi tahlil qilinib, mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiqlashtirish, tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *peshlavha, tashqi reklama, dizayn-kod, normativ-huquqiy ziddiyat, reklama joyi pasporti, tadbirkorlik huquqlari, qonun ustuvorligi.*

**ПРАВОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВОЙ РЕКЛАМЫ В ПРОЦЕССЕ
ПЕРЕХОДА ЭКОНОМИКИ К ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИННОВАЦИОННОЙ
МОДЕЛИ РОСТА**

Турсунов Абдухалил Абдусалимович

*Ташкентский государственный юридический университет,
Факультет Бизнес права и судебной защиты, Исследовательский центр,
младший научный сотрудник
ORCID ID: 0000-0002-4332-1424
Адрес электронной почты: intlaw100@gmail.com
Телефон: +998951870511*

Аннотация.

В данной статье анализируются правовые споры, возникшие в связи с демонтажом вывесок торговых точек в Ташкенте. Автор выявляет системные противоречия между Законом Республики Узбекистан «О рекламе», постановлениями Кабинета Министров № 428 и № 104 и постановлением Ташкентского городского совета о «Дизайн-коде». В частности, подробно рассматриваются отсутствие четкого определения понятия «зоны, свободные от рекламы» в законодательстве, оценка вывесок как объекта рекламы, одновременный сбор платы за установку наружной рекламы и платы за ее эксплуатацию, а также юридическая действительность паспорта рекламного места. В статье анализируется приоритет Конституции Республики Узбекистан и Закона «О нормативно-правовых актах», обосновывается необходимость гармонизации существующих нормативно-правовых актов с Законом «О рекламе» и защиты прав и законных интересов предпринимателей.

Ключевые слова: *вывеска, наружная реклама, дизайн-код, нормативно-правовой конфликт, паспорт рекламного места, права предпринимателей, верховенство права.*

**THE LEGAL IMPORTANCE OF DIGITAL ADVERTISING IN THE
TRANSITION OF THE ECONOMY TO A TECHNOLOGICAL AND INNOVATIVE
GROWTH MODEL**

Tursunov Abdukhalil Abdusalimovich

*Tashkent State University of Law Research Center,
Faculty of Business Law and Judicial Litigation
Junior Research Fellow
ORCID ID: 0000-0002-4332-1424
Email address: intlaw100@gmail.com
Phone number: +998951870511*

Abstract.

This article analyzes the legal disputes that have arisen in connection with the destruction of signboards of retail outlets in Tashkent. The author reveals the systemic contradictions between the Law of the Republic of Uzbekistan “On Advertising”, Resolutions of the Cabinet of Ministers No. 428 and No. 104, and the Resolution of the Tashkent City Council on the “Design Code”. In particular, the lack of a clear definition of the concept of “advertising-free zones” in the legislation, the assessment of signboards as an object of advertising, the simultaneous collection of fees for the installation of outdoor advertising and exploitation fees, and the legal validity of the passport of the advertising point are examined in detail. The article analyzes the primacy of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the Law “On Regulatory and Legal Acts”, and justifies the need to harmonize existing regulatory and legal acts with the Law “On Advertising”, and to protect the rights and legitimate interests of entrepreneurs.

Keywords: *signboard, outdoor advertising, design code, regulatory and legal conflict, advertising point passport, entrepreneurial rights, rule of law.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yilning avgust oyida tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda “Qayerda qonun ustuvor bo‘lsa, o‘sha yerda biznes rivojlanadi, investitsiya muhiti jozibador bo‘ladi”, deb ta’kidlangan edi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2025). So‘nggi kunlarda Toshkent shahridagi savdo shahobchalari peshlavhalarining buzilishi, mazkur choralarning qonuniyligi yoki aksincha, qonunga xilofligi haqida tadbirkorlar o‘rtasida qizg‘in bahs va munozaralar yuzaga kelmoqda. Mazkur chora-tadbirlar tashabbuskori - Toshkent shahar hokimligi ushbu vaziyatni Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining “Toshkent shahrining “dizayn-kodi” qoidalarini amaliyotga joriy etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2026-yil 17-fevraldagi qarori bilan poytaxtning me‘moriy qiyofasiga oid yangi qoidalarning qabul qilingani hamda uning 2026-yil 17-maydan e’tiboran joriy etilishi bilan izohladi (Xusanova, 2026).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) tomonidan esa ushbu qarorning tadbirkorlikka oid qismlarini qayta ko‘rib chiqish, tegishli o‘zgartirishlar kiritish va hattoki kuchga kirish muddatini uzaytirish bo‘yicha takliflar tayyorlangani hamda Toshkent shahar Kengashiga taqdim etilgani haqidagi xabarlar ham paydo bo‘ldi (Mo‘minova, 2026).

Shu o‘rinda, savdo shahobchalari peshlavhalarining tashqi reklama obyektlari deb baholanishi va buzilishi qonuniy ekanligi yoki qonunga xilofligi haqidagi savollarni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari doirasida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasi davlat o‘z faoliyatini qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshirishini nazarda tutadi. Uning 16-moddasi esa “O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas”ligini belgilaydi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023).

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” Qonuni 8-moddasiga asosan, “O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid bo‘lishi mumkin emas”. Qolaversa, mazkur qonunning 18-moddasiga muvofiq:

“Normativ-huquqiy hujjat o‘ziga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo‘lishi kerak.

Normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida tafovutlar bo‘lgan taqdirda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat qo‘llaniladi” (O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” Qonuni, 2021).

ASOSIY QISM

Shu nuqtayi nazardan, eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 31-avgustdagi 428-son qarori o‘rtasidagi ehtimoliy ziddiyatni ko‘rib chiqaylik.

1-jadval

t/r	Ziddiyat nuqtasi	“Reklama to‘g‘risida”gi Qonun	Vazirlar Mahkamasining 31.08.2023-yildagi 428-son qarori
1	“reklamadan xoli hududlar” tushunchasi	26-modda. Tashqi reklama va axborot obyektlariga	5. Belgilansinki: a) amal qilish muddati belgilanmagan reklama joyi

	<p>(konstruksiyalariga) doir asosiy talablar</p> <p>...</p> <p>Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) yo‘lning qatnov qismiga chiqarib o‘rnatish taqiqlanadi.</p> <p>Tashqi reklamani moddiy madaniy meros obyektlariga, yo‘l belgilariga va svetoforlarga, ularning tirgaklariga yoki harakatni tartibga solish uchun mo‘ljallangan boshqa har qanday qurilmaga o‘rnatish, shuningdek tutash hududdagi obodonlashtirish elementlarini buzgan holda o‘rnatish taqiqlanadi.</p>	<p>pasportlarining amal qilish muddati davlat mulki bo‘lgan bino va inshootlar uchun 2024-yil 1-dekabrgacha va yer uchastkalari uchun 2030-yil 1-dekabrgacha etib belgilansin. Bunda mazkur qoida quyidagi talablarga javob beradigan tashqi reklama obyektlariga tatbiq etiladi:</p> <p>...</p> <p>reklamadan xoli hududlarda joylashtirilmaganda, jamoat transporti to‘xtash bekatlari bundan mustasno;</p>
--	---	---

E‘tiborli jihati - “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunda “reklamadan xoli hududlar” tushunchasi mavjud emas (Barakina, 2023). Xususan, ushbu Qonunning 26-moddasi tashqi reklama va axborot obyektlariga (konstruksiyalariga) doir asosiy talablarni belgilab beradi, tashqi reklama va axborot obyektlarini o‘rnatishga oid taqiqlarni nazarda tutadi, lekin bevosita “reklamadan xoli hududlar” tushunchasiga aniqlik kiritmaydi (O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni, 2022).

Ayni vaqtda, Vazirlar Mahkamasining 31.08.2023-yildagi 428-son qarori 5-bandida tashqi reklama obyektlariga nisbatan belgilangan talablar qatorida “reklamadan xoli hududlarda joylashtirilmaganlik” degan shart keltirilgan. Biroq, ushbu qarorning o‘zida ham aynan qaysi hududlar “reklamadan xoli” deb tan olinishi aniq ko‘rsatilmagan, bu esa amaliyotda noaniqlik va turlicha talqinlarga olib keladi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 428-son qarori, 2023).

Bundan tashqari, “Reklama to‘g‘risida”gi qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi 104-son qarori bilan tasdiqlangan Tashqi reklama obyektlarini

(konstruksiyalarini) qurish tartibi to‘g‘risida Nizom (1-ilova) o‘rtasida ham tafovutlar borligi aniqlandi.

2-jadval

t/r	Ziddiyat nuqtasi	“Reklama to‘g‘risida”gi Qonun	Tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) qurish tartibi to‘g‘risida Nizom
1	Peshlavhani reklamadan farqlash	<p>2-modda. Ushbu Qonunning amal qilish sohasi</p> <p>Ushbu Qonunning amal qilishi:</p> <p>...</p> <p>4) reklama xususiyatidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olmagan peshlavhalar va ko‘rsatkichlar axborotiga;</p> <p>...</p> <p>tatbiq etilmaydi.</p>	<p>4. O‘zbekiston Respublikasida quyidagi reklama va axborot konstruksiyalarini o‘rnatishga ruxsat etiladi:</p> <p>peshtaxta — bino va inshootlarning oldi yoki tashqi tomonida, faqatgina korxonalar joylashgan va (yoki) o‘z faoliyatini amalga oshiradigan manzilda, korxonalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar yozilgan ma’lumot konstruksiyasi;</p> <p>37. ...</p> <p>Aholiga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning axborot va reklama vositalari quyidagi turlarga ajratiladi:</p> <p>peshlavhalar;</p> <p>axborot vositalari (axborot konstruksiyalari).</p> <p>39. Axborot peshlavhalari tayyorlovchi (bajaruvchi, sotuvchi) to‘g‘risidagi axborotni iste’molchining e’tiboriga yetkazish uchun mo‘ljallangan.</p> <p>...</p> <p>Peshlavhada faqat korxonalar to‘g‘risidagi quyidagi axborotlar ko‘rsatilishi mumkin:</p>

			korxonaning qayd etilgan (yuridik) nomlanishi; uning joylashgan joyi; korxonaning ish tartibi.
--	--	--	--

Mazkur tafovut – bu peshlavhani tashqi reklama obyektidan farqlashda aks etadi. Jumladan, “Reklama to‘g‘risida”gi qonun 2-moddasi “reklama xususiyatidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olmagan peshlavhalar”ga ushbu Qonun tatbiq etilmasligini qayd etadi (O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni, 2022).

Ayni vaqtda, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi 104-son qarori bilan tasdiqlangan Tashqi reklama obyektlarini (konstruksiylarini) qurish tartibi to‘g‘risida Nizomning 4-bandida esa “peshtaxta” tushunchasiga ta’rif berilgan, biroq ushbu Nizomning boshqa hech bir yerida “peshtaxta” tushunchasi qo‘llanilmaydi, aksincha qolgan bandlarda “peshlavha” atamasi qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 104-son qarori, 2020).

O‘zbek tilining izohli lug‘atiga ko‘ra, peshtaxta so‘zining lug‘aviy ma’nolari ichida “do‘konda, magazinda, bozorda sotuvchini xaridordan ajratib turadigan, ustiga sotiladigan mollar qo‘yiladigan, ko‘pincha xaridor tomoni yopiq maxsus stol” mazmuni ham bor (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2006–2008). Peshlavha so‘zi esa “old tomonga osiladigan lavh(a). Korxonada, idora, muassasa, o‘quv yurti kabilar haqida qisqa, ixcham, aniq ma’lumot yozilgan va shularning kiraverishida ko‘rinarli joyga o‘rnatiladigan maxsus taxtacha” degan ma’noni anglatishi qayd etilgan (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2006–2008).

Demak, yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, Tashqi reklama obyektlarini (konstruksiylarini) qurish tartibi to‘g‘risida Nizomni “Reklama to‘g‘risida”gi qonun mazmuniga muvofiqlashtirish, jumladan, “peshlavha” atamasini tashqi reklama obyektlari toifasidan chiqarish talab etiladi, aks holda amaliyotda hozirgidek noaniqliklar va turlicha talqin qilishlar davom etaveradi (Spot, 2026).

Yakunda “Reklama to‘g‘risida”gi qonun hamda tadbirkorlarning eng ko‘p e’tirozlariga sabab bo‘lgan hujjat - Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining “Toshkent shahrining “dizayn-kodi” qoidalarini amaliyotga joriy etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2026-yil 17-fevraldagi qarori o‘rtasidagi ziddiyatlarni tahlil qilamiz.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida quyidagi ziddiyatni ko‘rish mumkin:

3-jadval

t/r	Ziddiyat nuqtasi	“Reklama to‘g‘risida”gi Qonun	Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2026-yil 17-fevraldagi qarori
1	Reklama joyi pasporti yuridik kuchi	<p>5-modda. Asosiy tushunchalar</p> <p>Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:</p> <p>...</p> <p>reklama joyining pasporti —</p> <p>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari tomonidan beriladigan hujjat bo‘lib, ushbu hujjat yuridik va jismoniy shaxslarning tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) unda ko‘rsatilgan yer uchastkasiga, binoga yoki inshootga, mulk shaklidan qat’i nazar, o‘rnatish huquqini tasdiqlaydi;</p>	<p>Toshkent shahrining dizayni elementlarini joylashtirish qoidalari va tijorat obyektlari uchun shahar dizaynini joylashtirish tartibi, shaharning vizual o‘ziga xosligini shakllantirish, tutash hududlardan foydalanish, ulardagi konstruksiyalarni joylashtirish va axborot vositalarini (reklama, peshtaxta, yozuvlar) o‘rnatish qoidalari hamda shahar dizayn elementlari kataloglari (2-ilova)</p> <p>P2.3. Tijorat binolari uchun shaharsozlik elementlarini joylashtirish qoidalari.</p> <p>5. Statsionar reklama konstruksiyalari</p> <p>5.2. Atamalar va ta’riflar</p> <p>...</p> <p>Reklama joyi pasporti (keyingi matnda “pasport”) — belgilangan shakldagi hujjat bo‘lib, tashqi reklama texnik vositasi o‘rnatiladigan joyning texnik hujjati hisoblanadi. Reklama joyi pasporti reklama konstruksiyasini o‘rnatish uchun asos bo‘lmaydi va tashqi reklamani joylashtirish huquqini tasdiqlovchi guvohnoma</p>

			(sertifikat) bo‘lmagan holda haqiqiy emas.
--	--	--	--

Asosiy ziddiyat – reklama joyi pasportining yuridik kuchiga oiddir (Saidov, 2026). “Reklama to‘g‘risida”gi Qonun 5-moddasiga muvofiq, reklama joyining pasporti yuridik va jismoniy shaxslarning tashqi reklama va axborot obyektlarini pasportda ko‘rsatilgan yer uchastkasiga, binoga yoki inshootga, mulk shaklidan qat’i nazar, o‘rnatish huquqini tasdiqlaydi (O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni, 2022).

Boshqa tomondan, Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2026-yil 17-fevraldagi qaroriga 2-ilova sifatida tasdiqlangan Toshkent shahrining dizayni elementlarini joylashtirish qoidalari va tijorat obyektlari uchun shahar dizaynini joylashtirish tartibi, shaharning vizual o‘ziga xosligini shakllantirish, tutash hududlardan foydalanish, ulardagi konstruksiyalarni joylashtirish va axborot vositalarini (reklama, peshtaxta, yozuvlar) o‘rnatish qoidalari hamda shahar dizayn elementlari kataloglariga ko‘ra, reklama joyi pasporti reklama konstruksiyasini o‘rnatish uchun asos bo‘lmaydi va tashqi reklamani joylashtirish huquqini tasdiqlovchi guvohnoma (sertifikat) bo‘lmagan taqdirda, u haqiqiy emas (Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi, 2026).

Demak, Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunga zid ravishda, tashqi reklama va axborot obyektlarini o‘rnatish uchun reklama joyi pasportiga qo‘shimcha ravishda tashqi reklamani joylashtirish huquqini tasdiqlovchi guvohnoma (sertifikat)ni ham talab etuvchi qoidani yaratgan (Kapital.uz, 2026).

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yuqorida qayd etilgan barcha huquqiy ziddiyatlar tadbirkorlarning huquqlariga salbiy ta’sir etmay qolmaydi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan mutasaddilarga “tadbirkorlik subyektining nomi va faoliyat turi to‘g‘risida binoga joylashtirilgan axborotni reklama sifatida baholamaslik” topshirig‘i berilgani haqidagi xabarlar paydo bo‘ldi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2026). Albatta, bu xabar tashqi reklama sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar haqida umid beradi.

Biroq, yuqorida ko‘rib chiqilgan normalar - Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 428-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi 104-son qarori hamda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2026-yil 17-fevraldagi qarori hamon o‘z kuchida qolmoqda. Bu esa huquqiy asos sifatida ularga tayanib chora-tadbirlar ko‘rish mumkin ekanligini anglatadi.

Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 16-moddasi va O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” Qonunining 18-moddasidan kelib chiqqan holda, yuqoridagi 3 ta normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni talablari doirasida qayta ko‘rib chiqilishi hamda ushbu Qonun bilan mazmunan muvofiqlashtirilishi, shu orqali tadbirkorlik subyektlarining tashqi reklama sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilishiga barham berish lozim.

REFERENCES

1. Barakina, D. (2023-yil 31-oktabr). Toshkent aholisi reklamadan xoli hududlarni tanlaydi. Kursiv Media Uzbekistan. <https://uz.kursiv.media/uz/2023-10-31/toshkent-aholisi-reklamadan-xoli-bolishi-kerak-bolgan-hududlarni-tanlaydi>
2. Kapital.uz. (2026-yil 4-may). O‘zbekistonda tashqi reklama joylashtirish tartibi belgilandi. <https://kapital.uz/uz/tashqi-reklama-joylashtirish-tartibi/>
3. Mo‘minova, Z. (2026-yil 25-aprel). Biznes-ombudsman Toshkentning “Dizayn-kodi” qarorini qayta ko‘rib chiqishni talab qildi. Zamon. <http://zamon.uz/uz/2026/04/25/biznes-ombudsman-toshkentning-dizayn-kodi-qarorini-qayta-korib-chiqishni-talab-qildi>
4. Saidov, S. (2026-yil 4-may). Tadbirkorlar uchun tashqi reklama pasportini olish tartibi belgilandi. Kursiv Uzbekistan. <https://uz.kursiv.media/uz/2026-05-04/tadbirkorlar-uchun-tashqi-reklama-pasportini-olish-tartibi-belgilandi/>
5. Spot. (2026-yil 16-aprel). Toshkentda peshlavha reydlari biznesga qanday ta’sir qilmoqda? <https://www.spot.uz/oz/2026/04/16/ad-ban/>
6. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi. (2026-yil 17-fevral). “Toshkent shahrining “dizayn-kodi” qoidalarini amaliyotga joriy etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori (VII-19-17-14-0-K/26). <https://kengash.gov.uz/uz/toshkentshahar/documents/235404>
7. Xusanova, X. (2026-yil 16-aprel). Toshkentda peshlavha reydlari biznesga qanday ta’sir qilmoqda? Spot. <https://www.spot.uz/oz/2026/04/16/ad-ban/>
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2006–2008). O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. www.izoh.uz
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 428-son (2023). <https://lex.uz/uz/docs/-6593046>
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi reklama bozorini tartibga solish to‘g‘risida”gi qarori, 104-son (2020). <https://lex.uz/uz/docs/-4739746>
11. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). <https://lex.uz/docs/6445145>

12. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” Qonuni. (2021). <https://lex.uz/docs/5370382>

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. (2025-yil 20-avgust). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/8397>

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026-yil 5-may). Korxonalarining barqaror faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rib chiqildi. <https://president.uz/oz/lists/view/9175>

15. O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni. (2022). <https://lex.uz/docs/6052631>